

Haydaraliyev Muhammad Bobur*O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi "Islom huquqi" magistranti*

Annatotsiya: Ushbu maqolada Islom dinining ilmiy yo'nalishlaridan biri Islom huquqshunosligi, xususan, islam huquqi asosida iqtisod va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisod, Islom dini, Qur'oni karim, Islomiy moliyasi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi ma'naviy merosimiz, jumladan, diniy qadriyatlarimizning qaytadan hayotga kelishiga zamin yaratdi. Buyuk ajdodlarimiz ruhiga yuksak ehtirom ko'rsatila boshlandi. Bu esa ular qoldirgan boy ma'naviy merosdan xalqimiz bahramand bo'lishi uchun chuqur izlanishlar olib borilishiga asos bo'ldi. Madaniy merosimizni o'rganishda islam dinining ham munosib o'rni bor.

Xalqimizning hayot tarziga aylanib ketgan Islom dinining ilmiy yo'nalishlaridan biri Islom huquqshunosligidir. Ushbu fan, uning kelib chiqish manbalarini o'rganish bu borada izlanish dinshunoslik sohasida faoliyat olib borishni maqsad qilgan mutaxassislar oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Xususan, iqtisod har doim muhim hayotiy ehtiyoj bo'lgani bois dolzarb mavzu bo'lib kelgan. Shu sababdan har qanday jamiyat o'z taraqqiyot yo'lida iqtisodga alohida ahamiyat qaratgan.

Hozirgi dunyo iqtisodiy taraqqiyoti o'tgan asrlarga qaraganda beqiyos darajada rivoj topganligi barchaga ayon haqiqat. Har bir ishning tartib intizomi bo'lgani kabi Islomdagi tadbirkorlikning ham o'z qonun-qoidalari bor. Tadbirkorlik masalasi inson hayoti bilan chambarchas bog'liqligi bois buni bilish foydadan holi bo'lmaydi. Mustaqillikka erishilgandan buyon yurtimizda iqtisodiy hamkorlik borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tadbirkorlik sohasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. 2024 – yilni "Yoshlar va biznesni qo'llab quvatlash" yili, deb e'lon qilinishi ham buning yorqin dalili deyishimiz mumkin. Qoleversa, tadbirkor va biznesmenlarga hukumat vakillari xossatan davlat boshlig'ini alohida e'tibor qaratganligi e'tiborga molikdir.

Islam dini insonlarni iqtisodiy munosabatlariga alohida etibor qaratgan. Xususan, Qur'oni karimda hamda sunna nabaviyda odamlarni sanoat va tijorat borasida iqtisodiy izlanishga hamda zirotatchilikga undalgan.

"ما من مسلم يغرس غرساً أو يزرع زرعاًها فيأكل منه طير أو إنسان أو بهيمة إلا كان له به صدقة"¹

¹ Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy. Sahihi Muslim.– Bayrut. Dor al-ilm.–b. 268.–h. 4055

Musulmon kishining ekkan daraxtidan va ziroatidan qush, inson yoki hayvon yesa unga sadaqa bo'ladi.

Islom dinida insonlarni o‘z mehnati evaziga hayot kechirishga undaladi. Agar diniy ta’limotimizga nazar solsak, Allohning payg‘ambarlari ham qo‘l mehnati bilan hayot kechirganliklariga guvoh bo‘lamiz. Jumladan, Muhammad alayhissalom savdogarlik bilan, Muso alayhissalom cho‘ponlik bilan, Dovud alayhissalom esa temirchilik bilan faoliyat yuritganliklari tarixdan ma’lum. Bundan tashqari Yusuf alayhissalom Misr iqtisodiyotiga mas’ul shaxs bo‘lganligiga, Ibrohim alayhissalom o‘g‘li Ismoil alayhissalom bilan birga Ka’bani qayta qurbanligiga guvoh bo‘lamiz. Bundan hatto payg‘ambarlar ham iqtisodiy faoliyat yuritish bilan bir qatorda boshqa insonlarni ham mehnat qilishga va o‘zaro iqtisodiy ko‘mak berishga chaqirgani ma’lum bo‘ladi. Payg‘ambarimiz Muhammad salollohu alayhi vasallam qo‘ldan ish kelmaydigan insonlarni iqtisodiy faoliyatiga ko‘mak berish uchun ularni biror bir kasbga yo‘naltirib qo‘yish amallarning eng yaxshisi ekanligini bayon qilganlar. Insonlarga iqtisodiy ko‘mak berish turli ko‘rinishda bo‘lishi mumkin. Masalan, hunarsizga hunar o‘rgatish, tijorati kasodga uchraganga sarmoya berish, dehqonlarga urug‘, don berish va shu kabi insonlar iqtisodiy faoliyat yuritishda nimaga ehtiyoji bo‘lsa, o‘sha hojatini berish kiradi. Inson o‘zining hayoti uchun iqtisodiy faoliyat yuritar ekan, u jamiyatda har xil buzg‘unchilik ishlarga qo‘l urmaydi. Xususan, Allohning payg‘ambarlari ham iqtisodiy faoliyat yuritganligini bilsa, bu ish naqadar yuksak ekanligini anglaydi. Bejizga dono halqimiz “Mehnatdan kelsa boylik turmish bo‘lar chiroylik” demaydi. Inson halol kasb bilan ro‘zg‘or tebratar ekan, jamiyatdagi ne’matlarning qadr-qimmatini anglab yetadi. Bunday insonlar o‘zgalar mol-mulkiga ko‘z olaytirmaydi, topgan davlatini nojoya o‘rinlarga sarflamaydi.

Islom iqtisodining shiorlaridan biri inson o‘z iqtisodiy faoliyatini shariat belgilab bergen me’yorlar asosida olib borishi va topgan daromadlarini esa o‘zining va jamiyat manfati yo‘lida moddiy va ma’naviy ko‘mak berish yo‘lida sarflashlidir.

Islomiya moliya tarmog‘i bugungi kunimizda jadal rivojlanib borayotgan va moliyalashtirish mehanizmlarini o‘zida jamlagan sohalaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislarni fikriga ko‘ra, islomiu moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2,5 trillion AQSH dollarni tashkil etadi va yiliga 15-20%ga o’sib bormoqda.

Aholisini aksar qismi musulmonni tashkil etgan davlatlar uchun ushbu tarmoq rivojlantirish dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qur’oni Qarim. – Qohira: Maktabatul jildul arobiy.
2. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur/. – Toshkent: 2011.

3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Al-Jomi' as-Sahih. (o‘zbek tilida) 4 jildli. Toshkent: 1997.
4. 18.08.2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/6561>.
5. Muslim ibn al-Hajjoj al-Qurayshiy. Sahihi Muslim. Dor al-ilm. Bayrut.